Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugaprovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KONSEPTUAL JADVAL VA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MODELI



G'ofurova Sh. M.

Andijon davlat universiteti Psixologiya va
pedagogika kafedrası tayanch doktranti

<https://orcid.org/0009-0004-4055-7804>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli mohiyati, mazmuni, tarkibiy qismlari, maqsadi, mezonlari, bosqichlari ijtimoiy-pedagogik ahamiyati xususida fikr yuritildi. Shuningdek, konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli yuzasidan tanikli olimlarning ilmiy xulosalari tahlili keltirildi.

Kalit so'zlar: konseptual jadval, grafik organayzer, model, kompetentlik, kognitiv, obekt, tashxis, vizuallashtirish, motivatsiya, refleksiya.

Abstract: This article examines the essence, content, components, goals, criteria, and stages of the socio-pedagogical significance of a model for developing skills in using conceptual tables and graphic organizers for future teachers. It also presents an analysis of the scientific findings of renowned scholars on the model for developing skills in using conceptual tables and graphic organizers.

Key words: conceptual table, graphic organizer, model, competence, cognitive, object, diagnostics, visualization, motivation, reflection.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, содержание, компоненты, цели, критерии, этапы социально-педагогического значения модели развития навыков использования концептуальных таблиц и графических органайзеров для будущих учителей. Также представлен анализ научных выводов известных ученых о модели развития навыков использования концептуальных таблиц и графических органайзеров.

Ключевые слова: концептуальная таблица, графический органайзер, модель, компетенция, когнитивная, объект, диагностика, визуализация, мотивация, рефлексия.

KIRISH

Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarning ona tili fanidan kasbiy tayyorgarligi, o'quv materiallarni tizimlash, tahlil qilish va vizual shaklda taqdim etish va nazorat qilish ko'nikmalarini muayyan model asosida shakllantirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda [1;11] pedagog kadrlarning vizual vositalar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish, xususan ona tili ta'limini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Demak, shunga mos ravishda ta'lim jarayonining mazmuniga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi ham zarur ekanligi odatiy holdir. Ta'lim beruvchi bilim berishdan ko'ra, qanday o'rganishni o'rgatishi hamda mustaqil ravishda bilim manbalarini topishi muhim. Shunga ko'ra, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qurilgan, nafaqat axborotdan foydalanishni osonlashtiradigan, balki ta'lim tizimini yangicha uslubda qurish imkonini beruvchi yangi ta'lim modeliga ehtiyoj sezilmoqda. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari har qanday o'qituvchiga yuqori ta'lim natijalariga erishish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ancha kengroq va o'qituvchining tasavvuriga, ijodiga hamda texnik tayyorgarligiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, bu o'z raqamli ta'lim darajasini oshirish zarurligini taqozo etadi.



Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi-larining konseptual jadval va grafik organayzerlarni qo'llash kompetentligini shakllantirish modeli xususida fikr yuritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "Model (lot. modulus – o'lchov, me'yor) – tilshunoslikda – biror morfologik, grammatik va boshqa tizim etaloni –namunasi)ni bildiruvchi mavhum tushuncha; til tizimi yoki uning biror tarmog'i ta'rifining umumiy jadvali" shaklida izohlangan [2; 671]. Boshqa manbada model so'zi (lotin tilida "moduls" – o'lchov, birlik, usul, obraz) – bilish maqsadlarida inson mohiyati, shaklini o'zgartiradigan va asosiy obyekt haqida yangi ma'lumot beradigan jarayonli obyekt sifatida yondashiladi [3; 81]. Demak, pedagogik model – o'rganilayotgan obyektning muayyan xususiyatlari, belgilari, xossalarini, uning tarkibi hamda faoliyat tamoyil-larini aks ettiruvchi yaxlit tizimdir.

V.V.Davidovaga ko'ra, mazkur holatda talabalarning kompetentlik darajalari kognitiv → amaliy → metodik → refleksiv rivojlanish zanjiri asosida aniqlanadi [4; 240].

M.V.Klarinining ta'kidlashicha, ona tili ta'limi modeli uni o'qitish jarayonining qanday ishlashini ko'rsatib beradigan yo'l xaritasidir [5; 256] desa, Yu.K.Babanskiyning e'tiroficha, konseptual jadval va grafik organayzerlar ona tili fanini o'qitishda samarali pedagogik vosita bo'lib, ular talabalarning mantiqiy tafakkuri, nutqiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ulardan foydalanish zamonaviy ona tili ta'limining metodologik yondashuv va didaktik tamoyillariga to'liq mos keladi [6; 142].

H.Brownning yozishicha, model talabalarda konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligi muvaffaqiyatli shakllanishi uchun qulay bo'lgan ta'lim muhitini yaratadi [7; 89].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif qilinayotgan modelning maqsadi ona tili ta'limi jarayonida talabalarda o'quv axborotini egallash, tahlil qilish, tizimlashtirish, taqqoslash hamda vizual ifodalashga qaratilgan intellektual faoliyatni rivojlantirish asosida konseptual jadval va grafik organayzerlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsad talabalarning ona tili fani yuzasidan bilimlarni integratsiyalash, muammoli vaziyatlarni vizual modellash orqali hal etish, ijodiy, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishni hamda o'quv axborotini ongli o'zlashtirish darajasini oshirishni nazarda tutadi. Ilmiy nuqtai nazardan bu maqsad kognitiv – atama va tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni anglash, amaliy – turli tipdagi konseptual jadval va grafik organayzerlarni tuzish hamda qo'llash, metakognitiv – o'z o'quv faoliyatini refleksiyalash va nazorat qilishga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida asoslanadi.

Model ilmiylik, tizimlilik va izchillik, faollik va mustaqillik, ko'rgazmalilik va vizuallik, integrativlik, refleksiya va baholash kabi pedagogik hamda didaktik tamoyillarga tayanadi. E'tirof etilayotgan tamoyillar konseptual jadval va grafik organayzerlar mazmunining zamonaviy pedagogika, psixologiya va kognitiv fanlar yutuqlariga muvofiqligini ta'minlash, kompetentlikni shakllantirish jarayonining bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilishi, talabalarni ona tilida bilim olish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishga yo'naltiriladi. Shuningdek, ona tili fanidan o'quv axborotini vizual modellar orqali anglash va xotirada saqlash samaradorligini oshirish, fanlararo aloqadorlik asosida grafik organayzerlardan kompleks foydalanish hamda talabalarda o'z o'quv faoliyati natijalarini tahlil qilish hamda baholash madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konseptual jadval va grafik organayzerlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish mezonlari, mazmuni o'rganilib, alohida jadval shaklida ifodalanib, izohlandi (1-jadval qarang).

1-jadval: Konseptual jadval va grafik organayzerlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish mezon va mazmuni

№	Mezon	Mazmuni
1.	Kognitiv-motivatsion	Qiziqish uyg'otish, ahamiyatini tushuntirish.
2.	Axborotlilik	Nazariy bilimlar berish.
3.	Amaliy-faoliyatli	Jadval va organayzerlar tuzish, ulardan foydalanish.
4.	Ijodiy	Turli muammoli vaziyatlarda qo'llash.
5.	Refleksiv	Tahlil va baholash.



1. Kognitiv-motivatsion mezon talaba faoliyatini harakatlantiruvchi kuch, u talabalarda ona tilini o'rganishga ichki ehtiyoj va qiziqish uyg'otish, xususiy o'quv-biluv faoliyatida faol ta'lim subyekti sifatida ishtirokini ta'minlaydi. Kognitiv motivatsiya tayyor konseptual jadvallar asosida ona tili ta'limini tashkil qilish, talabalarga til faktlarini mustaqil tahlil qilish, tizimga solish, o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Demak, bilishga bo'lgan motivatsiya mezonni talabalarda konseptual jadval va grafik organayzerlarning didaktik mohiyatini anglash, kognitiv jarayonida faol, ongli va mustaqil qo'llash kompetentligini shakllantiradi.
2. Konseptual jadval va grafik organayzerlarni qo'llashning axborotlilik mezonni asosida talabalar ona tili fanidan ilmiy-nazariy bilimlarni ongli va tizimli o'zlashtiradilar. J.Bruner axborotli bosqichni kognitiv faoliyatni yo'naltirish va yangi bilimlarni qabul qilish mexanizmi sifatida izohlaydi [9]. Ona tili ta'limida axborotli bosqich lisoniy hodisalarni ilmiy asosda izchil va uzviy o'rganish uchun zarur bilimlar tizimini shakllantirish vazifasini o'taydi. Konseptual jadval va grafik organayzerlarni qo'llash modelining axborotli bosqich mexanizmi axborotni ilmiy tizimlashtirib taqdim etish, ko'rgazmalilik va vizual kognitsiya, reproduktiv – qisman produktiv faoliyat, til materialini organayzer orqali modellash singari o'zaro aloqador tarkibiy qismlar asosida amalga oshadi.
3. Konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligini shakllantirish amaliy-faoliyatli mezonni talabalarining reproduktiv faoliyatdan produktiv va ijodiy faoliyatga o'tishini ta'minlaydi. Mazkur mezonda konseptual jadval va grafik organayzerlar o'quv materialini tizimlash, ona tili fani tushunchalari, atamalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, ularni tahlil va umumlashtirish vositasi sifatida ishlatiladi. Amaliy-faoliyatli mezon mexanizmi amalga oshirishda muammoli ta'lim, klaster, intellekt-xarita, refleksiya metodlari, konseptual jadval, grafik organayzer, raqamli platformalar, baholash jadvali vositalari, individual, juftlik, guruhli faoliyat shaklidan foydalanib, tahliliy fikrlash, tushunchalarni bog'lash, ijodiy modellash, o'z-o'zini baholashdan iborat pedagogik vazifalar hal qilinadi.
4. Konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligini shakllantirish modelining ijodiy mezonni talabalarda til hodisalarini mustaqil tahlil qilish, umumlashtirish va vizual modellash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Unda talabalar tayyor algoritmlarga tayanishdan ko'ra, o'zining individual bilish tajribasiga asoslangan vizual modellarni yaratadi. Ijodiy mezonda konseptual jadval va grafik organayzerlar ona tilining fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'rganishda faol qo'llaniladi. Masalan, so'z turkumlarini taqqoslovchi jadval, gap turlarini intellekt-xarita orqali ifodalash ta'lim oluvchilarda til tizimi haqida yaxlit tasavvurni shakllantiradi.
5. Refleksiv mezon ijodiy faoliyat natijalarini anglash, tahlil qilish hamda baholashga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunda talaba, nafaqat natijani, balki unga erishish jarayonini ham tahlil qiladi. Ona tilini o'qitishda qo'llaniladigan ijodiy va refleksiv mezonlar o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'lib, unda ijodiy faoliyat refleksiya orqali takomillashadi, ijodiy va refleksiv mezonlarning integratsiyasida talabalar ijodiy, mustaqil organayzer yaratadi, ularni amaliyotga yo'naltiradi, ijodiy kompetentlik, refleksiv tahlil va baholash ko'nikmalarini mustahkamlab, barqaror kompetentlikka erishadi.

Bu mezonlarning tizimli, ongli va proporsional qo'llanilishi kompetentlikning barqarorligi va universalligini ta'minlaydi. Mazkur modelni ta'lim jarayoniga joriy etish bosqichli va tizimli xarakterga ega bo'lib, tayyorlov, loyihalash, amaliy-tatbiqiy hamda nazorat-tahlil bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tayyorlov-tashxis bosqich talabalarining ona tiliga oid dastlabki bilim darajasini aniqlash, grafik organayzerlar bilan ishlashga tayyorlik holatini baholashda diagnostik testlar o'tkazish, og'zaki va yozma nutqni tahlil qilish, oddiy jadval va chizmalar asosida talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu orqali talabalarining ona tilini bilish darajasi va individual xususiyatlari aniqlanadi, samarali ta'limi uchun fundamental asos yaratiladi.

Loyihalash-konstruktiv bosqichda talabalar ona tili fani bo'limlari bo'yicha konseptual jadval va grafik organayzerlar tizimini ishlab chiqadi. Jarayonning mazmuni fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis mavzulari uchun jadval va grafik organayzerlar tuzish, klaster, Venn diagrammasi, konsept-xarita kabi organayzerlarni tanlash, mashg'ulot maqsadlariga mos metod va usullarni belgilashga yo'naltiriladi. Shu bois, talabalar ona tili fanini o'qitishga moslashtirilgan grafik organayzerlar majmuasi bankini yaratishadi.

Amaliy-tatbiqiy bosqichda talaba konseptual jadval va grafik organayzerlarni dars jarayoniga tatbiq qilish orqali o'qituvchi tomonidan namunaviy jadvallar asosida tushuntirish, juftlik va guruhlarda organayzer tuzishga jalb etish, muammoli topshiriqlar orqali mustaqil ishlarni tashkil etishni o'rganadi. Natijada talabalarda til hodisalarini tahlil qilish va tizimlashtirish ko'nikmalari shakllanadi.

Nazorat-tahlil bosqichida model samaradorligini aniqlash va tahlil qilish faoliyati yo'lga qo'yiladi. Uning mazmuni joriy, oraliq va yakuniy testlar o'tkazish, tayyorlangan grafik organayzerlarni ekspert baholash hamda tajribada guruh talabalarini natijalarini taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Yakuniy natija sifatida modelning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashadi.



Umumlashtirish va takomillashtirish bosqichida o'qituvchi olingan natijalarni ilmiy xulosalaydi va statistik tahlil, metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda modelni takomillashtirish faoliyatini yo'lga qo'yadi. Mazkur faoliyat natijasi o'laroq talabalarda grafik organayzerlarni o'quv amaliyotiga joriy etish bilan bog'liq mukammal metodik tizim yaratiladi.

Quyida bo'lajak o'qituvchilarining konseptual jadval va grafik organayzerlar bilan ishlash kompetentligi quyi, o'rta va yuqori darajalari kognitiv-bilish, amaliy-faoliyat, metodik-pedagogik hamda refleksiv-baholash mezonlari asosida yaxlit jadval ko'rinishida taqdim etildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval: Konseptual jadval va grafik organayzerlar bilan ishlash kompetentligi darajalari

Daraja	Ko'rsatkichlar
Yuqori daraja	Konseptual jadval va grafik organayzerlarning nazariy asoslarini chuqur biladi. Ularni ta'lim mazmuni, fanlararo bog'liqlik va didaktik maqsadlarda tizimli asoslaydi. Didaktik maqsadlar uchun organayzerlarni mustaqil, ijodiy tuzadi, moslashtiradi, takomillashtiradi. Darsning barcha bosqichlarida ularni qo'llay oladi. O'quvchilarning tizimli, tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, interfaol ta'limni ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatini tanqidiy va tizimli tahlil qiladi. To'g'ri metodik qarorlar qabul qiladi, o'zini rivojlantiradi.
O'rta daraja	Asosiy tur va tushunchalarni biladi. Nazariy bilim mavjud, ammo tizimlashmagan, integratsiya yetarli darajada anganmagan. Tayyor shablon va algoritmlar asosida organayzer tuzadi. Qisman mustaqillik mavjud, ijodiy yondashuv cheklan-gan. Organayzerlarni asosan darsning takrorlash, mustahkamlash bosqichlarida qo'llaydi. Metodik samaradorlik qisman ta'minlanadi. Refleksiyasi epizodik xarakterda, tahlilda o'qituvchi yordamiga muhtoj.
Quyi daraja	Konseptual jadval va grafik organayzerlar haqida yuzaki tasavvurga ega. Tushunchalarni aniq ta'riflay olmaydi, turlarini farqlashda qiynaladi. Bilimlar tizimsiz va fragmentad. Organayzerlarni mustaqil tuzish ko'nikmasi shakllanmagan. Tayyor namunadan nusxa ko'chirish bilan cheklanadi, amaliy xatolar ko'p uchraydi. Organayzerlarni dars maqsadi va mazmuni bilan bog'lay olmaydi. Qo'llash epizodik va formal xarakterga ega, o'quvchi faolligiga ta'siri kam. Faoliyatini tahlil qilmaydi, xatolarni anglamaydi. Refleksiya ko'nikmasi shakllanmagan.

Jadvaldan ifodalangan darajalar o'rtasidagi o'tish bosqichlari konseptual jadval va grafik organayzerlar yuzasidan maqsadli metodik tayyorgarlik, interfaol ta'lim texnologiyalari hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirish asosida ta'minlanadi. M.Saidova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish kompetentligi sifati konseptual jadval va grafik organayzerlarning pedagogik mohiyatini bilishi [9; 113], ularni dars maqsadi, mazmuni va kutilgan natijalarga mos tanlay olishi, fanlararo aloqadorlikni aks ettira olishi, grafik organayzerlardan darsning turli motivatsiya, yangi bilim berish, mustahkamlash, refleksiya bosqichlarida foydalanish, ularni individual, juftlik va guruhli ish shakllari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning yosh va bilish darajasiga moslashtirish, raqamli grafik organayzerlardan foydalana olishi, AKT vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mezonlarga javob berishi zarurligidan iborat [8;120].

Ishlab chiqilgan model talabalarda konseptual jadval va grafik organayzerlar bilan ishlash kompetentligini izchil, bosqichma-bosqich va tizimli shakllantirishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida bilimlarni tizimli, to'g'ri va samarali tarzda yetkazish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda umumlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun aynan ushbu vositalarning o'rni beqiyosdir. Grafik organayzerlar va konseptual jadvallar yordamida murakkab ma'lumotlarni vizual tarzda ifodalash, o'quvchilarga mavzuni chuqur, oson va tez anglab olishda katta ko'mak beradi. Bo'lajak o'qituvchilar bu uslubdan foydalangan holda mavzuni samarali, tartibli va tizimli tarzda o'rgata olishadi, dars davomida o'quvchilarda motivatsiya va qiziqish uyg'otishadi.

Ta'lim jarayonida konseptual jadval hamda grafik organayzerlardan foydalana olish ko'nikmasi o'qituvchilardan zamonaviy texnologiyalardan xabardorlik, axborotlarni tahlil qilish va kreativlikni talab etadi. Yaxshi ishlab chiqilgan grafik organayzerlar va jadvallar o'quvchilarning mavzuga oid tafakkurini boyitadi, mustaqil o'rganish va o'z bilimini mustahkamlash imkonini yaratadi, har bir mavzuning asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatadi.

Shuningdek, o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, izchil va asosli tarzda ifodalay olish malakasini rivojlantiradi, ular orasida samarali muhokama va bilim almashinuvi jarayonlari faol bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – B. 11.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси ҳарфи М "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 671-б.
3. Djurayev R.X., Tolipov O'. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –T.: "Fan" nashriyoti, 2008-yil. – B. 81.
4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – М.: Педагогика, 1986. – С. 240.
5. Кларин М.В. Инновационная модель образования. – М.: Педагогика, 2010. – С. 256.
6. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1982. – С. 192.
7. Brown H., Ciuffetelli D. S. (Eds.). Foundational methods: Understanding teaching and learning. P.507. Toronto: Pearson Education, 2009.;
8. Саидова М. Она тилини ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – Б. 120.
9. Saidova M. Theoretical grammar through graphic organizers (назарий грамматика фанидан семинар машғулотлари ташкил қилиш бўйича услубий қўлланма). – Бухоро: Дурдона, 2022. – 113 б
10. Bruner, J. S. (1978). The role of dialogue in language acquisition. In A. Sinclair, R., J. Jarville, and W. J.M. Levelt (eds.) The Child's Concept of Language. New York: Springer-Verlag.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.